

**MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
TALABALAR MUSTAQIL ISHINING ROLI**

Rajabov Muzaffar Najimovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Elektr energetikasi kafedrasida assistenti

Annotatsiya: *ushbu maqolada talabalarining ma’ruza mashg’ulotlarida oladigan nazariy bilimlarini mustaxkamlash.*

Kalit so‘zi: *innovatsion ta’lim texnologiyasi, ma’ruza mashg’uloti, mustaqil ish, ko’nikma, mantiqiy fikrlash.*

**РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ПОВЫШЕНИИ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ**

Раджабов Музаффар Наджимович

*ассистент кафедры Электроэнергетики
Каршинский инженерно-экономический институт*

Аннотация: *данная статья посвящена роли независимого образования в совершенствовании теоретических знаний, которые студенты получают на лекционных занятиях.*

Ключевое слово: *инновационная образовательная технология, лекционное занятие, самостоятельная работа, навыки, логическое мышление;*

**THE ROLE OF STUDENT INDEPENDENT WORK IN IMPROVING THE
EFFECTIVENESS OF LECTURE SESSIONS**

Rajabov Muzaffar Najimovich

*assistant of the Department of electrical energy
of the Karshi Institute of Engineering and Economics*

Annotation: *this article focuses on the role of Independent Education in improving the theoretical knowledge that students receive in lecture sessions.*

Keyword: *innovative educational technology, lecture session, independent work, skills, logical thinking.*

Kelajagi buyuk davlatimiz taraqqiyoti uchun muhim hujjat hisoblangan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yosh mutaxassislariga qo‘yilgan talablarning negizida talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini mukammal shakllantirish yotadi. Bu sohada ijobiy natijalarga erishish uchun ta’lim jarayonida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish alohida va o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu sababli talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning samaradorligini oshirish uchun fan o‘qituvchilari tomonidan talabalarga mustaqil ish sifatida berilayotgan mavzu va topshiriqlarni rejalashtirishda talabalarining tayanch va nazariy bilimlari,

erkin va chuqur fikrlashlari, mantiqiy mushohada qilishlari hamda amaliy ko'nikmalari kabi qobiliyatlarini qat'iy e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Xozirgi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan vaqtda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi?

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Tarbiyaning bosh maqsadi - yoshlarda savodxonlikni, ongni, madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq, nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, o'rganuvchining ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

❖ zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

❖ ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

❖ pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

❖ pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda har bir fanning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv mashg'ulotlarining barcha (ma'ruza, amaliy, laboratoriya) turlari bo'yicha auditoriyadagi mustaqil ish hamda auditoriyadan tashqari mustaqil ish shakllari alohida ahamiyatga egadir.

Ma'ruza mashg'ulotida talabalar mustaqil ishini tashkil etishda ma'ruza o'qituvchisi tomonidan birinchi ma'ruza mashg'ulotida mustaqil ish mavzulari va har bir mavzuga tegishli adabiyotlar to'g'risida ma'lumotlar hamda internet tarmog'i manzillari aniq ko'rsatilgan holda talabalarga yetkazilishi talab etiladi. Mustaqil ish sifatida nisbatan sodda, dolzarb mavzularni tanlanishi va har bir mavzu ma'lum bir jarayonning sodir bo'lishi mexanizmini o'rganishga qaratilgan bo'lishi hamda uni mukammal o'zlashtirilishi talaba ongida mazkur jarayonning sodir bo'lishi mexanizmi to'g'risida aniq tasavvur shakllanishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda talabalar mustaqil ishlari mavzularini tanlashda bunday yondashish talabalarni fanga qiziqishini hamda bilimlarini muntazam ravishda orttirib boradi.

Talabalarda mustaqil ishni boshlang‘ich tayyorlash jarayonining nisbatan qiyin kechish holati, ularda mustaqil ishni tayyorlash ko‘nikmasini yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, uni bartaraf etish talabalardan muntazam shug‘ullanishni va zaruriy holatlarda fan o‘qituvchisidan tegishli maslahat hamda mavzuga oid ma‘lumotlarni olish bilan izlanishni davom ettirib borishni talab etadi. Mustaqil ishni xuddi shunday tizimli tayyorlash talabalarda ko‘nikma hosil qiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlari bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda kurs ishlari, malakaviy amaliyotlar hisobotlarini tayyorlash va bitiruv malakaviy ishlarni mustaqil bajarishlari uchun muhim zamin yaratadi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – B.3.

6. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta‘lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011. 206 b.

7. Rajabov M.N. **ELEKTROTEXNIKA FANIDA TALABALARNI KOMPETENTLIKLARINI RIVOJLANTIRISH.** Pedagogics international research journal | Volume-11 | Issue-1.Nashr sanasi: 2022-06-18

8. A.B.Sa‘dullayev, M.N.Aliqulov. Ta‘lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishning alohida xususiyatlari. Qar MII Konfrensiya materiallari to‘plami. Qarshi.2014 yil aprel.